



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


2023- YILNING
YANVAR OYIDA



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdag'i vositachilikga qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qildi.



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar





Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **841,5 mld. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **105,4 mld. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,6 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



2022- y. Yanvar

2023- y. Yanvar

3

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasini
rivojlantirish

Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar oyida) | Hajmi, mldr. so'm | 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|--|----------------------|--|
| Xizmatlar - jami | 841,5 | 105,6 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 53,8 | 123,8 |
| Moliyaviy xizmatlar | 219,5 | 120,6 |
| Transport xizmatlari | 197,7 | 99,3 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 96,5 | 92,1 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 16,2 | 76,7 |
| Savdo xizmatlari | 186,0 | 99,7 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 18,9 | 99,9 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 34,7 | 115,4 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 10,9 | 98,4 |
| Ijara xizmatlari | 13,9 | 86,6 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 25,6 | 99,4 |
| Shaxsiy xizmatlar | 34,9 | 100,4 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 8,7 | 114,5 |
| Boshqa xizmatlar | 20,7 | 92,5 |

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2023- yilning yanvar oyida bu xizmatlarning ulushi **26,1 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (**23,5 %**), savdo xizmatlari (**22,1 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**6,4 %**) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo'limgan o'sish qayd etildi, ularning ulushi **1,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **23,5 %** ini tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,0 %**.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2023- yilning yanvar oyida yuqori o'sish aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**23,8 %**), moliya xizmatlarida (**20,6 %**), ta'limgaz sohasidagi xizmatlar (**15,4 %**), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**14,5 %**), shaxsiy xizmatlar (**0,4 %**) qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (**23,3 %** ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, Ijara xizmatlari (**13,4 %** ga), boshqa xizmatlar (**7,5 %** ga) pasayishi kuzatildi..

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida transport xizmatlari yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 39,7 %. Ijara xizmatlari o'sish sur'atlarida pasayish kuzatilgan – 40,0 %.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **22,1 %** ni tashkil etib, bu **186,0 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ularning hajmi **164,7 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmning **22,4 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i, **76,5 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **16,2 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**7,3 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yilning yanvar oyida)



9

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasini
rivojlantirish

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida chakana savdo ulushi **76,0 %** ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar oyida)

2023- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi **219,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ularning hajmi **172,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiylar hajmidagi ulushi **26,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ularning ulushi **23,5 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **46,7** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **20,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ularning o'sish sur'ati **130,5 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,7 %** ni tashkil etdi.


2023- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,1 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,2 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar oyida)

**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi
moliyaviy
faoliyat**



**Sug'urta
bo'yicha
xizmatlar**

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **93,8 %** ni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,6 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,6 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekomunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2022- y. yanvar

41,6

114,8

5,7



2023- y. yanvar

53,8

123,8

6,4


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2023- yilning yanvar oyida ularning ulushi **95,2 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

2022-y. yanvar



2023-y. yanvar



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

 **Noshirlik xizmatlari**

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,7 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lif va fan sohasini** rivojlantirish – uzlusiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2023- y. yanvar

115,4 %

O'tgan yilga
nisbatan o'sish
sur'atlari

**34,7
mlrd. so'm**

4,1 %

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

Umumiyligi
hajmdagi ulushi

133,3 %

2022- y. yanvar

**29,7
mlrd. so'm**

4,0 %

2023- yilning yanvar oyida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **34,7 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyligi **4,1 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **115,4 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatolo-giya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetolo-giya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2022- y.
Yanvar**



**2023- y.
Yanvar**

Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

17,3

Xizmatlar
hajmi, mlrd.
so'm

99,3

O'sish sur'ati, % da

2,4

Xizmatlar jami
hajmidagi ulushi,
% da

**2022- y.
Yanvar**

16,2

76,7

1,9

**2023- y.
Yanvar**


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

2022-yil yanvar oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **1,1 mlrd. so'mga** kamaygi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

**2022- y.
yanvar**



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

**2023- y.
yanvar**



**Yashash bo'yicha
xizmatlar**

2023- yilning yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **86,3 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ushbu xizmat turlarining ulushi **89,9 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar

| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar oyida) | Hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|---|------------------------------|-----------------------------|-----------------|
| | | 2023- y. | 2022- y. |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 841,5 | 105,6 | 118,5 |
| Nukus sh. | 334,5 | 106,4 | 113,3 |
| tumanlar: | | | |
| Amudaryo | 46,3 | 114,4 | 111,6 |
| Beruniy | 44,7 | 108,7 | 108,9 |
| Bo'zatov | 4,9 | 108,8 | 113,6 |
| Qorao'zak | 15,0 | 111,1 | 116,4 |
| Kegeyli | 16,6 | 108,9 | 115,7 |
| Qo'ng'irot | 114,8 | 93,8 | 169,9 |
| Qonliko'l | 12,4 | 110,4 | 114,9 |
| Mo'ynoq | 10,9 | 109,9 | 119,7 |
| Nukus t. | 18,6 | 110,4 | 111,1 |
| Taxiatosh | 22,2 | 118,4 | 112,9 |
| Taxtako'pir | 12,9 | 107,1 | 114,2 |
| To'rtko'l | 70,0 | 102,9 | 108,9 |
| Xo'jayli | 38,3 | 109,1 | 108,2 |
| Chimboy | 26,1 | 102,4 | 118,2 |
| Shumanay | 12,8 | 108,8 | 109,4 |
| Ellikqal'a | 40,5 | 113,2 | 108,2 |

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2023- yil yanvar oyida)



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumanida – 0,6 % (2022- yilning yanvar oyida – 0,6 %) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning o'sishi



O'sish sur'ati

2023- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **428,8** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **104,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **380,2** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **117,0 %** da qayd etilgan.